

KOMPYUTER LINGVISTIKASINING RIVOJLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

*Termiz davlat universiteti Filologiya fakulteti 3- bosqich
420-guruh talabasi - Jumayeva Kamola
Ilmiy rahbar: Abdualimova Gulhayo Hasanovna*

Annotatsiya: Maqolada kompyuter lingvistikasining fan sifatida shakllanishi b \ddot{u} yicha fikr yuritilgan . Bundan tashqari maqolada xorijda va \ddot{O} zbekistonda kompyuter lingvistikasi b \ddot{u} yicha olib borilgan tadqiqotlarni , \ddot{O} zbek olimlarining kompyuter lingvistikasi b \ddot{u} yicha olib borilgan izlanishlarinni k \ddot{O} rishimiz mumkin . Kompyuter lingvistikasining bugungi kundagi yutuqlari b \ddot{u} yicha qisqacha fikr yuritilgan.

Абстрактный: В статье рассматривается становление компьютерной лингвистики как науки. Кроме того, в статье мы можем увидеть исследования, проведенные за рубежом и в Узбекистане по компьютерной лингвистике, исследования, проведенные узбекскими учеными по компьютерной лингвистике. Дан краткий обзор современных достижений компьютерной лингвистики.

Kaliti so'zlar: Kompyuter lingvistikasi , matematik lingvistika , tilshunoslik.

Ключевые слова: компьютерная лингвистика, математическая лингвистика, языкознание.

Bugungi kunda nafaqat jahonda, balki , \ddot{O} zbekistonda integratsiya va globallashuv jarayoni kechayotgan bir vaqtda kompyuter lingvistikasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kompyuter lingvistikasi yangi soha b \ddot{O} lishiga qaramay , tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Hozirgi kunda ta'lim sohasini ham kompyuter lingvistikasiz tasavvur qilish qiyin albatta . Bugungi kunda barcha sohalarda kompyuter lingvistikasi fanining yutuqlarini k \ddot{O} rishimiz mumkin. Oddiy q \ddot{O} l telefonlaridan tortib, eng murakkab kompyuter va robotlar aynan mazkur fan taraqqiyoti samarasidir. Xususan, tilshunoslikka kompyuter texnologiyalarining kirib kelishi natijasida kompyuter lingvistikasi fani shakllandi. Kompyuter lingvistikasi matematik lingvistikaning mantiqiy davomi b \ddot{O} lib , u amaliy tilshunoslikning eng muhim qismini tashkil qiladi.

Kompyuter lingvistikasi XX asrning 50-yillarida yuzaga keldi . Bu fanning shakllanishida Kopengagen struktural tilshunoslik maktabining asoschisi Lui Yelmslevning \ddot{G} oyalari \ddot{O} ziiga xos turtki vazifasini bajargan. \ddot{O} tgan yetmish yilga yaqin vaqt mobaynida kompyuter lingvistikasi sohasida bir qator ilmiy va amaliy natijalarga erishildi : Tabiiy tilda avtomatik tarjima tizimi yaratildi, matndagi ma'lumotlarning avtomatik qidiruv tizimi ishlab chiqildi, o \ddot{G} zaki nutqning avtomatik analizi va sintez tizimi yaratildi, bir qator lingvistik muammolarni hal etuvchi kompyuter dasturlari ishlab chiqildi, inson va mashina (kompyuter) muloqoti optimallashtirildi , tabiiy tilni qayta ishlash tizimi shakllantirildi.

Xorijda kompyuter lingvistikasi b \ddot{u} yicha olib borilgan tadqiqotlarning k \ddot{O} lami juda keng . Ayniqsa, AQSHda olib borilgan tadqiqotlar izchilligi , qamrab olingan

muommolar doirasining kengligi bilan ajralib turadi. AQSHda maxsus tashkilotlar ochilgan bòlib , kompyuter lingvistikasi bilan bogliq masalalarni hal qilish bilan shugullanadi. MDH mamlakatlarida ham kompyuter lingvistikasi bòyicha juda kòp izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa , bu borada rus kompyuter tilshunosligidagi tadqiqotlar diqqatga sazovardir . Rossiyada har yili kompyuter lingvistikasiga oid “Dialog” xalqaro konferensiyasi otkaziladi.

AQSh, Yevropa mamlakatlari , Rossiyada kompyuter lingvistikasi masalalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar turkiy davlatlarda, jumladan, Òzbekistonda shu sohaning rivojlanishiga zamin yaratdi.

XX asr oʻrtalariga kelib Òzbekistonda fan texnika sohasida kompyuterga oid bir qancha atamalar faollasha boshladi. Òzbek tili materiallari bòyicha H.Arziqulov, S.Rizayev va S.Muhamedovlar kabi bir qancha olimlar kompyuter tilshunosligiga oid tadqiqotlar olib bordi . Mazkur olimlar , asosan , kompyuter lingvistikasining statistik tahlil yònalishi bòyicha izlanishlar olib borishgan. Òzbek kompyuter lingvistikasini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida Òzbekistonda Milliy universitetida 2001-yilda kompyuter lingvistikasi laboratoriyasi tashkil etildi. Xalqaro konferensiyalar otkazilmoqda, davlat ahamiyatiga molik hamkorlik aloqalari yòlga qòyilmoqda. Òzbek tilida kompyuter dasturlarining yaratilayotgani , ozbek tilini dunyoviy tillar darajasiga olib chiqishga qaratilgan sa’y harakatlardir.

Xulosa qilib aytganda , bu yònalishda sezilarli yutuqlarga erishilgan bòlsa-da, qayd etilgan masalalar tòliq yechimini topgani yòq. Kompyuter lingvistikasi fani oldida jamiyatimizni yangi ijtimoiy bosqichlarga kòtarishda zarur bòlgan vazifalar anchagina . Jahon kompyuter tizimida ozbek tilidagi ma’lumotlar bazasining yaratilishi va ozbek tilidagi matnlarni avtomatik tarzda boshqa tillarga tarjima qiluvchi dasturlarning yaratilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kompyuter lingvistikasining muammolari va hali isbotini topmagan masalalarni oʻrganish biz yoshlarning asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:

1. Zulxumor Xolmonova “Kompyuter lingvistikasi “ Toshkent -2019.
2. Nilufar Abdurahmonova “Kompyuter lingvistikasi “ Nodirabegim nashriyoti.
3. Manzura Abjalova “Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistil moduli” Nodirabegim nashriyoti .Toshkent - 2020
4. Nilufar Abdurahmonova “Mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti “monografiya .Toshkent nashriyoti- 2018.